

SHART MAYLIDAGI ARAB MAQOLLARINING SHART MAYLIDAGI O'ZBEK MAQOLLARI BILAN CHOG'ISHTIRMA TAHLILI.

Diniqulov A.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti akademik litseyi
kata o'qituvchisi.

Annotatsiya. Bu tezisda arab maqol-matallarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Tarjima shakllari ko'rib chiqilgan. Arab maqol-matallari bilan o'zbek maqol-matallari orasidagi o'xshashlik va farqlar taqqoslangan. Xalqning milliy qadriyatlari o'sha xalq maqol-matallarida aks etishi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: arab maqollari, arab matallari, maqollar to'plami, ma'noviy tarjima.

Tarjima jarayonida tarjimon nafaqat so'z bilishi, balkim o'sha xalqning turmush tarzini, urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodini ham juda yaxshi bilishi kerak bo'ladi. Chunki bu narsalar tarjima qilinayotgan asarning tabiiy chiqishiga sabab bo'ladigan asosiy unsurlardan hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini oddiy gapdek tarjima qilish maqol, metal singari xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan frazeologizmlarning asl ma'nosidan uzoqlashib ketishiga yoki tarjimada g'alizlik paydo bo'lishiga olib keladi.

Boshqa tildagi maqollarni o'zbek tiliga tarjima qilishda uch usuldan foydalaniladi.

Birinchi, maqollar aynan o'sha shaklda o'zbek tilida ham mavjud bo'ladi. Butun dunyoda odamlarning o'y-xayollari, orzu-istaklari bir-biriga chambarchas bog'liqligi sir emas. Afrikadagi odam ham, Osiyodagi odam ham doimo tinchlik bo'lishini, yaxshilik ustun kelishini xohlashi tabiiy holdir. Shu sababdan, xalqlar o'rtasidagi bu moslik xalq og'zaki ijodida ham o'z aksini topadi. Arab maqollarini

o'zbek tiliga tarjima qilishda ham ba'zi maqollar arab va o'zbek tillarida ayni bir shaklda, qisman o'zgarishlar asosida mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, من يسقط في النهر يتمسك في الأفعى maqoli o'zbek tilidagi "Daryoga cho'kayotgan hasga tarmashar" yoki "Cho'kayotgan cho'pga yopishar" maqollari bilan bir xil ekanini ko'rish mumkin. Arab tilida ergash gap shaklida, fe'llar esa shart maylida berilgan bu maqol o'zbek tilidagi variantida sodda gap va shart maylida emas, xabar maylida keltirilgan. Ammo bu farq ma'noga aslo ta'sir qilmagan. Yana bir maqolda ham buni ko'rish mumkin. لا تؤجل عمل اليوم إلى الغد maqol tarjimasi o'zbek tilidagi "Bugungi ishni ertaga qoldirma" maqoli bilan ayni bir xildir. Arab tilida buyruq maylining inkor shaklini yasash uchun shart maylidagi fe'ldan foydalaniladi. Ammo o'zbek tilida buyruq maylining inkor shaklini yasash uchun shart maylidan foydalanilmaydi. Shu sababdan ham o'zbek tilidagi maqolda shart maylini uchratmaymiz.

Ikkinchi, ba'zi maqollar borki, ular boshqa tilda, masalan, arab tilida boshqacha so'zlar bilan ifodalanadi. Ammo o'zbek xalq og'zaki ijodida u bergan ma'noni ifodalovchi variantdosh maqolni uchratish mumkin. Ular so'zma-so'z emas, aksincha o'zbekcha variantdoshi yordamida tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, إن ضجّ فزد وقرا maqoli tarjimasi so'zma-so'z qilinganda "Agar shovqin solsa (nolisa), unga yukni oshir" shaklida bo'ladi. O'zbek tilida esa bu maqol ifodalagan ma'noni "Eshakning yuki yengil bo'lsa, yotoqlaydi" maqoli ochib bera oladi. Chunki ikki maqol ham odamni tahqirlash va g'ururlangan yoki izzat kelganda o'zidan ketganga nisbatan ishlatiladi. Odam yaxshi sharoitga erishgan sari ko'proq nolishni o'ziga odat qilib olishi bor gap. Har ikki maqol ham (arab tilida ham, o'zbek tilida ham) qo'shma gapdan tashlik topgan. Bu yerda ikki tilda ham shart maylining ishlatilishiga guvoh bo'lamiz. Chunki ikkinchi ish harakat sodir bo'lishiga birinchi ish-harakat sabab bo'layotgani uchundir. ما تجلبه الرياح تأخذه الزوابع bu maqolda ham o'zbek tiliga qilingan so'zma-so'z tarjima bilan o'zbek tilidagi muqobil variantdosh maqolni uchratish mumkin. So'zma-so'z tarjima qilinganda "Shamol nimani olib kelsa, bo'ron o'shani olar" shaklida bo'ladi. Ammo o'zbek

tilida bu shaklda berish uning ta'sir kuchini kamaytiradi. O'zbek tilidagi "Oson kelgan, oson ketar" maqoli yordamida berish esa uning ta'sirchanligini saqlab qoladi. Bu ikki maqolda ham qo'shma gap shaklidan foydalanilgan.

Uchinchi, ba'zi maqollar borki ular faqat o'sha xalq mentalitetidagina kelib chiqqan. Bunday maqollarning boshqa tilda ekvivalentini (variantdoshini) uchratish juda qiyin. Bunday maqollarni tarjima qilish ham anchagina qiyin. Sababi uning ma'nosini tushuntirib berish uchun so'zma-so'z tarjimaning o'zi kifoya qilmasligi mumkin. Bunday paytda ma'noni izohlash uchun qo'shimcha gaplardan foydalanishga to'g'ri keladi. Masalan, *إن تك ضبا فأني حسله* bu maqolni ko'rsak biz uchun noodatiy bo'lgan *ضب* so'ziga duch kelamiz. Bu so'z arab diyorlarida sahroda yashovchi "Zob" nomli kaltakesakka o'xshash hayvon bo'lib, uni iste'mol qilish mumkinligi hadislardan ma'lum. Ammo uni o'zbek kitobxoniga "kaltakesak" deb tarjima qilish aslo to'g'ri bo'lmaydi. Bu so'z o'zbek kitobxonlari uchun izohga ehtiyoji bor so'z hisoblanadi. Shuning uchun uni tarjima qilganda "Agar sen zob bo'lsang, darhaqiqat men uning kaltakesagiman" deyish ma'noni qorong'ulashtirishdan boshqa narsa bo'lmay qoladi. Maqoldagi "zob" so'zidan so'ng qavs ichida uning ma'nosini ifodalash kerak bo'lsa, maqol oxiridagi so'z (*حسل*) lug'atda "kaltakesak, kaltakesak bolasi" deb berilgan. Ammo bu so'zni ham shu holida qoldirib bo'lmaydi. Sababi yuqorida aytib o'tilgandek, zob halol hayvon bo'lsa, kaltakesak harom hisoblanadi. Demak, bu ikki hayvonni tenglashtirib bo'lmaydi. Shu sababli bu so'z ham izohga muhtojdir. Maqolning asl ma'nosi esa Abu Al-Fazl Ahmad ibn Muhammad an-Nisaburiyning "Maqollar to'plami" kitobida "Bu maqol inson ilm va ziyraklikda o'zi singari odamni uchratganda ishlatiladi" deb sharhlangan. Demakki, bu maqol ma'nosidan ko'rinib turibdiki maqoldagi ikki hayvon ham har tomonlama bir-biriga teng, munosib bo'lishi kerak. Yana bir arab maqolini ko'rib chiqsak ham bu narsani ko'rish mumkin. *من ينكح الحسناء يعط مهرها* bu maqolni tushunish uchun ham islom dinidan xabardor bo'lish talab qilinadi. *مهر* (mahr) so'zi g'ayridinlar uchun mavhum so'z hisoblanib uni tushuntirish uchun izoh talab qilinadi. Bu so'z musulmon xalqlar uchun tushunarli

soʻz boʻlgani uchun oʻzbek tiliga tarjimada muammo yuzaga kelmasligi mumkin, ammo maqol tarjimasi boshqa tilga boʻlganda, albatta, izohga ehtiyoj bor. Maqol tarjimasiga kelsak “Kim chiroylini nikohlab olmoqchi boʻlsa, mahrini bersin” degan shaklda tarjima qilinishi uning soʻzma-soʻz tarjimasi boʻladi. Oʻzbek tilida “Chumchuqdan qoʻrqadigan odam tariq ekmaydi” yoki “Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi” kabi maqollar bilan ekvivalentlikni hosil qila oladi. Ammo bu oʻzbek maqollari bu arab maqolining maʼnosiga nisbatan ekvivalentidir. Bu arab maqolining oʻzbekcha tarjimasi hisoblanmaydi. Maqol maʼnosi esa inson biror narsaga erishishi uchun biror narsadan voz kechishi kerakligini anglatadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshqa tillardan maqol-matallarni tarjima qilayotganda ularning faqat tarjimasini bilishning oʻzi kifoya qilmaydi. Ularning paydo boʻlish sabablarini bilish ham talab etiladi. Chunki bu narsa maqol-matallarning maʼnosini yanada aniq bilishga ularning asl maqsadini toʻgʻri tarjima qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Shamusarov Sh.Gʻ. Arabskiy folklor. – T.: Fan. 1992. – 151 b.
2. Shomusarov Sh. Gʻ. Arab va oʻzbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – T.: Fan. 2002. – 302b
3. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс. 2001. – 656 с
4. Пермьяков Г.Л. Пословицы и поговорки народов Востока. – М.: Наука. 1979. – 672 с.
5. أبو الفضل أحمد بن محمد النيسابوري "مجمع الأمثال (الجزء الاول)". مؤسسة الطبع و النشر التابعة للأستانة الرضوية المقدسة. سنة 1344 هـ. – 602 ص.
6. محمد اسمائيل صيني و ناصف مصطفى عبد العزيز و مصطفى أحمد سليمان "مجمع الأمثال العربية". مكتبة لبنان. 1996. – 212 ص.